Respublikamiz aholisi va hududining seysmik xavfsizligini ta’minlash to’g’risidagi Qonuni mazmun-mohiyatiga bag’ishlangan matbuot anjumani o’tkazildi

Bugun, 16-sentyabr kuni Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi binosida “O’zbekiston Respublikasi aholisi va hududining seysmik xavfsizligini ta’minlash to’g’risida”gi Qonuni mazmun-mohiyatiga bag’ishlangan matbuot anjumani o’tkazildi.

Unda Fanlar akademiyasi vitse-prezidenti S.Mirzayev, FA Mexanika va inshootlar seysmik mustahkamligi instituti direktori K.Sultanov, FA Seysmologiya instituti direktori o’rinbosari V.Ismailov, FVV Seysmoprognoz monitoring respublika markazi boshlig’i Q.Qo’chqorov hamda Qurilish vazirligi mutasaddidlari ishtirok etdi.

Matbuot anjumanida Qonunda Vazirlar Mahkamasi, Favqulotda vaziyatlar vazirligi, Fanlar akademiyasi, Qurilish vazirligi hamda boshqa davlat hokimiyati organlarining seysmik xavfsizlikni ta’minlash sohasidagi vakolatlari, vazifalari, Qonun qabul qilinishining asosiy sabablari, maqsadi haqida mutasaddilar tomonidan to’liq ma’lumotlar berildi.

Matbuot anjumani so’nggida jurnalistlar o’zlarini qiziqtirgan savollarga javob oldilar.